

QALBAKI IMZOLARNING USULLARINI ANIQLASH

X.Raximbayev

Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh Boshqarmasi
Ekspert kriminalistika Markazi bosh eksperti mayor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17053906>

Annotasiya. Ushbu maqola orqali men jinoyatlarnisodir etishda jinoyatchilar tomonidan imzolarni soxtalashtirish tushunchasi, usullari, ularni aniqlash usullari, umumiy va hususiy belgilari, ularning ekspertiza o'tkazishdagi ahamiyati haqida ma'lumot berganman.

Kalit so'zlar. Imzo, qo'l bilan chamalab taqlid qilish, transkripsiya, chizish, Umumiy va hususiy belgilar, taqlid.

Methods for detecting counterfeit signatures

Abstract. Through this article, I have provided information about the concept of forging signatures by criminals, methods, methods of their detection, general and specific signs, and their importance in conducting an examination.

Key words. Imitation of a signature by hand, transcription, drawing, general And special signs, imitation.

Методы обнаружения поддельных подписей

Аннотация. С помощью этой статьи я расследую преступления понятие, методы фальсификации подписей преступниками, методы идентификатсии, общая и видовая характеристика, о сути.

Ключевые слова. Подпись, рукопашная имитация, транскрипция, рисунок, общие и специфические признаки, имитация.

Taqlid – imzosi aks ettirilgan shaxsning harakatlarini qaytarishga urinishdir. Taqlid shaxsda mavjud bo'lgan streotipni buzish jarayoni bilan bog'liq. Taqlidchi o'zining g'ayriodatiy harakatlarini bajaradi, natijada imzoni bajarish Jarayonini nazorat qilish istagi paydo bo'ladi. Dinamik streotipning qotib qolganligi, ya'ni uning nisbiy turg'unligi taqlid qilish imkonini chegaralaydi va odatda, taqlid bilan bajarilgan imzolarda kuztiladi. Shu bilan birga, dimoiy mashqalar va harakatlarning ishlov darajasining muayyan mos tushishida, shuningdek, dasxatlarning o'xshashligi natijasida ijobiy natijaga erishish mumkin. Ko'pincha imzoni taqlid qilish orqali qalbakilashtirish quyidagi usullar bilan bajariladi: ko'z bilan chamalab, yoddan, mashqlar natijasida. Ko'z bilan chamalab taqlid – ko'z orqali qabul qilish va uni aks ettirishni bildiradi Taqlidning bu turi asosida kuzatilayotgan harf, shtixlarni, yani imzoning qisimlarini chizib olish yotadi. Qalbakilashtiruvchi avval imzoni butunligicha o'rganadi, keyin uni qalbaki hujjatda huddi o'ziday tasvirilaydi. Namuna imzoni ta'svirlash aniqligi ko'z orqali qabul qilishga, uning o'tkirligi, to'liqligi va



aniqligiga bog'liq. Qalbakilashtiruvchi o'zining etiborini imzoning tashqi ko'rinishiga qaratadi va odatda, uning induviduallashtiruvchi ayrim muxim alomatlarini etiborsiz qoldiradi. Qalbakilashtirilayotgan imzo harakatlarining birlashgan tizimi sifatida tasvirlangani uchun uni bajarish jarayoni alohida harakatlardan tashkil topadi.

Ekspert harakatlar kordinatsiyasining buzilish alomatlarini, bajarilish surating sekinlashishini quydagilardan aniqlaydi: yozuv qurolining tabiiy bo'lmagan to'xtashlaridan; alohida harflar; shtrixlarni bajarishda harakatlarning uzilishlaridan; shtrixlarning sinishlari va egriligida aks ettirilgan titrash izlaridan; chizib qo'yilishidan; bosimning notekisligidan. Shunday qilib yozuv anjomining to'xtashlari xarfning qandaydir elementi (shtrixi) harakatlarining uzilishi yuzaga kelgan joydagi harakatlarning boshlanishi Nuqtasining siljishi orqali, past bog'lanish darajasi esa – keyingi harf (shtrix) larning boshlang'ich qisimlarida tugagan uzun oxirgi shtrixlar bilan niqoblanadi. Shuningdek imzoning bir xil xususiy alomatlari quydagicha farqlanadi: imzoning boshlang'ich va yakuniy qisimlarini bajarishdagi harakatlarning shakli bilan; qo'shimcha shtrixlarni bajarishdagi harakatlarning cho'zilganligi bilan; harakatlarning joylashishi bilan; shuningdek chizmani bajarishdagi harakatlarning murakkabligi bilan. Shunday qilib, ushbu taqlid turi uchun qalbaki imzo va namuna imzoning tashqi ko'rinishi bo'yicha juda o'xshashligi va hususiy alomatlarda jiddiy farqlar bilan tavsiflanadi.

Yoddan taqlid – Qalbakilashtiruvchini avval kuzatgan va yodlab olgan boshqa shaxsning nomidagi ikmzoni tasvirlashdan iborat. Qalbakilashtiruvchi yodida qolgan imzoning shakliga taqlid qiladi. Ushbu taqlid turida imzoni bajarishdagi aniqlik – kuzatish vaqti, yodlashning tavsifi (oldindan o'ylab yoki o'ylamasdan), xotiraga va hakozolarga bog'liq. Ko'p hollarda qalbaki imzo bilan haqiqiy imzo orasida faqat nisbiy o'xshashlik bo'lishi mumkin. Yoddan taqlid bilan bajarilgan imzolar uchun umumiy alomatlar xatning siyrakligi, bog'langanligi va ko'p hususiy alomatlardagi farqlari bilan tavsiflanadi. Xarakatlarning sekinlashishi, kordinatsiyaning buzilishi kabi alomatlar ham namoyon bo'lishi mumkin. Qalbakilashtiruvchi imzoning yaqqol ko'zga tashlanuvchi alomatlari: transkirpsiya, chizma, harakatlarning yo'nalishi va umumiy shaklini aks ettiradi. Qalbakilashtirilayotgan imzoda Qalbakilashtiruvchi imzosining elementlari namoyon bo'lib qoladi. Shunday qilib, Yoddan taqlid bo'yicha bajarilgan imzolar, Ko'z bilan chamalab bajarilgan imzolaridan quydagilar bilan farq qiladi – oxirgisi xaqiqiy imzolar bilan tashqi ko'rinishi bo'yicha katta o'xshashlikka ega shuningdek



ma'lum darajada xususiy alomatlar ham mos tushadi. Mashqlar natijasida imzoning bajarilishi. Mashq maqsadida biron-bir imzoni aks ettirish jarayonini yengillashtirish uchun malum ko'nikmalarni ishlab chiqishdan iborat. Mashq – ko'rinishiga oid qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan uzoq davom etuvchi jarayon. Davomiy mashq shunday ko'nikmani ishlab chiqishga olib kelishi mumkinki, uning natijasida qalbakilashtiruvchi imzoni erkin, kordinatsiyalangan harakatlar bilan bajarishi mumkin, bu esa taqlid qilinganlik faktini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Dastlabki mashq bilan bajarilgan. Ko'z bilan chamalab qalbakilashtirishda Harakatlar kordinatsiyasi buzilishi, suratning sekinlashishi shuningdek xususiy alomatlarining farqlanishi kabi belgilar kam darajada namoyon bo'ladi. Shunday qilib, masalan sekinlashish alomati umuman yo'q bo'lishi mumkin. Ishlov darajasi taqlid bilan imzoning bajarilishiga qanday tasir qilishini bilish shart.

Qalbakilashtiruvchining imzosi va namuna imzoning ishlov ishlov darajasining bir xilligi taqlid qilishni yengillashtiradi va aksi, agar qalbakilashtiruvchi dastxatning ishlov darajasi yuqori, namuna imzoniki qamishlovli bo'lsa, unda qalbakilashtirilgan imzoda, namuna imzoga xos bo'lgan alomatlar kuchliroq namoyon bo'ladi (ular harakatlar kordinatsiyasining kamayishi natijasida kiritiladi). Transkripsiyaning ko'rinishi ham imzoni taqlid bilan bajarish mumkinligiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, tuzilish nuqtai nazaridan, murakkab harfli transkripsiya imzolar, xatto dastlabki mashq bilan imzoni bajarishda ham kata qiyinchiliklarga ega. Qoida bo'yicha mashqlar natijasida taqlid bilan bajarilgan imzolarda ijrochi dastxatning alomatlari kam qoladi. Lekin bir xil hollarda qalbakilashtiruvchi imzosining chizmasi, shuningdek, harf elementlarining qismlari, harf va shtixlar uchun xos bo'lgan alohida xususiy alomatlarining saqlanganligini kuzatish mumkin, shuning uchun sodir bo'ladiki, mashqlarga qaramasdan Qalbakilashtiruvchi namuna imzo va o'zining imzosidagi axamiyatsiz farqlarni sezmaydi va qalbaki imzoni o'zining ko'nikmasiga xos bo'lgan harakatlar bilan bajaradi.

Dastlabki mashq orqali taqlid bilan bajarilgan imzolarda, namuna imzo bilan mos tushishlari kabi farqlar ham kuzatiladi. Mos tushishlar barcha umumiy va quyidagi xususiy alomatlarga tegishlidir: xavfli qisimlarning elementlarini va chizmani bajarishdagi harakatlarning tuzilishi bo'yicha murakkabligi; shtix, xarf elementining bosh qismini bajarishdagi harakatlarning shakli; bosh harflar va chizmani bajarishdagi harakatlarning yo'nalishi; harflarni o'zaro bog'lashdagi harakatlarning shakli; imzo elementlarini bajarishdagi boshlanish va yakunlash nuqtalarini joylashtirish Farqlar asosan xususiy alomatlarga tegishli: harfning



elementlarini bajarishdagi harakatlarning yo'nalishi va shakli; harfning element va shtrixlarini bajarishdagi egiluvchi harakatlar (og'ishlar)ning nisbiy yo'nalishi harflardagi bog'lanish va kesilish nuqtalarining joylashishi; harakatlarning vertical bo'yicha cho'zilganligi.

Ekspert chizishlarga alohida etibor qaratish kerak. Qalbaki imzolarda chizilishlar aloxida puhtalik bilan bajarilganligi va monogrammada, yani murakkab harflarning birikmalarda joylashishi bilan farqlanadi. O'ylab chiqarilgan shaxslar nomidagi imzolarda qalbakilashtiruvchi shaxsiy dasxatning alomatlari, shuningdek uning imzosiga hos bo'lgan alomatlar ham topiladi. Bunday imzolarni gumon qilinayotgan bajaruvchining imzo va dastxat namunalari (erkin, tajribaviy) bilan taqqoslash tadqiqoti natijasida ko'pincha qalbaki imzolar kim tomonidan bajarilganligini aniqlash mumkin. O'ylab chiqarilgan shahslar nomidagi imzolarni alohida alohida tadqiqot bosqichida, ekspert harflarda, uning harfsiz qismida aks ettirilgan dasthatning barcha alomatlarini o'rganadi. Alomatlarni o'rganish ketma-ketligi oddiy imzoni o'rganish ketma ketligiga o'xshash bo'ladi. Gumon qilinayotgan ijrochining dastxat alomatlarini o'rganayotganda, asosiy etiborni tadqiq etilayotgan imzoda mavjud bo'lgan harflar va harf elementlarini birikmasiga qaratish kerak. Ko'pincha o'ylab chiqarilgan shahslar nomidagi imzolar buzilgan dasxat bilan bajarilgan bo'ladi.

Bunday qalbaki imzoning ijrochisi o'z dastxatini yarashishga harakat qiladi. shuning uchun ekspert imzo tadqiqotiga o'tishdan oldin ijrochi dastxatida buzilish alomatlari mavjud emasligini aniqlash kerak. Buzilishlar tez yozuvli yashirish yo'li, chap ko'l yoki bosma shrift bilan bajarish orqali amalga oshish mumkin. Tez yozuvli yashirin yo'li orqali dastxat buzilishining o'ziga hos alomatlariga quydagilar kiradi: harf elementlari va to'laligicha harflarning tuzilishi murakkabligi bazida esa imzoning yakuniy qismi chizmaning jim jimadorligi, alohida harflarning ishlov darajasi tuzilishining imzoning (ishlov darajasining kamayishi mavjudligi) boshqa qisimga nisbatan mos emasligi.

Imzo elementlarning tuzilishi bo'yicha murakkab bajarilishi odatda yuqori aniqlikdagi harakatlarni va tez suratni talab qiladi, bunday imzoda esa, nu elementlar sekin bajarilgan: alohida takrorlanuvchi hususiy alomatlaning turg'un emasligi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki tez yozuvli yashirishda buzilish alomatlarini aloxida aloxida tadqiqot bosqichida aniqlash juda ham qiyin va har doim ham imkoni bo'lavermaydi. Bu esa alomatlarning turg'unligi aniqlashga imkon bermaydigan grafik materialning kichik hajmiga bog'liq. Taqqoslash



materialini o'rganish imzoning o'ziga hos bo'lmagan bajarilish alomatlarini aniqlashga ma'lum darajada yordam beradi.